

Okrug komissiyasi matbuot markazida brifing o'tkazildi



Okrug komissiyasi matbuot markazida brifing o'tkazildi

Bugun O'zbekiston Respublikasi Referendumini o'tkazuvchi 9-Surxondaryo okrug komissiyasi matbuot markazida viloyatdagi ommaviy axborot vositalari xodimlari uchun brifing o'tkazildi.

Unda 9-Surxondaryo okrug komissiyasi raisi o'rinbosari Rasul To'rayev ishtirokchilarga mamlakatimiz hayotidagi muhim siyosiy jarayonga ko'rilayotgan tayyorgarlik ishlari haqida atroflicha ma'lumot berdi.

- Okrug hududidagi referendum o'tkazuvchi 860 ta uchastka a'zoliciga 9 ming 602 nafar obro'-e'tiborga ega, referendum to'g'risidagi qonunchilikdan xabardor faol fuqaro jalb etilmoqda, - dedi R.To'rayev. - Ularning 7 ming 255 nafari ilgari saylovlarda ishtirok etib, yetarli tajriba to'plagan.

Image not found or type unknown

Bir qatorda referendum o'tkazuvchi komissiyalar tarkibi, ular uchun tashkil etilayotgan o'quv seminarlari va uchastka komissiyalari a'zolarining ayrim kunlarda olib borayotgan ishlari xususida ham atoflicha axborot berildi.






Image not found or type unknown

